

“Yashil Vatanim - so‘zdan harakatga”

Toshkent shahri bo‘ylab 3 martdan 19 - martgacha Meros jamg’armasi hamda Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tashabbusi bilan “Yashil vatanim - so‘zdan harakatga” shiori ostida daraxt ekish aksiyasi o’tkazilmoqda. Ushbu aksiyada institutimiz talabalari ham faol ishtirok etmoqda. Jumladan, Suv xujaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti “Ekologiya va atrof muhit muhofazasi” ta’lim yo’nalishi 408 -guruh talabalari va guruh murabbiysi R. Razzakov boshchiligidagi 06.03.2020 yil Olmazor tumani 119-maktabdan boshlanib 117, 432 va 441- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida daraxt ekish aksiyasida faol ishtirok etishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati